

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ROQOVA NAFOSAT YORIYEVNA

**OLAM BADIYY MANZARASINING FLORISTIK VA FAUNISTIK
OBRAZLARDA IFODALANISHI
(YANGI O‘ZBEK SHE‘RIYATI MISOLIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan
dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук

Contents of abstract of the Doctor of Science dissertation

О‘роқова Нафосат Ҳориевна

Olam badiiy manzarasining floristik va faunistik obrazlarda ifodalanishi (yangi o‘zbek she‘riyati misolida)3

Урокова Нафосат Ёриевна

Флористическое и фаунистическое образное выражение художественной картины мира (на примере новой узбекской поэзии)33

Uroкова Nafosat Yoriyevna

The expression of the artistic landscape of the world in floristic and faunistic images (on the example of new Uzbek poetry)67

Е‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ROQOVA NAFOSAT YORIYEVNA

**OLAM BADIYY MANZARASINING FLORISTIK VA FAUNISTIK
OBRAZLARDA IFODALANISHI
(YANGI O‘ZBEK SHE‘RIYATI MISOLIDA)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan
dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Fil755 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNET” axborot-ta‘lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Quvvatova Dilrabo Xabibovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

Qobilov Usmon Uralovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sabirdinov Akbarali G‘afurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Kuchkarova Marhabo Xudayberganovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “26” mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:140104, Buxoro shahri, M.Iqbol, 11. Tel.: (+365) 221-29-14; faks: (365) 221-26-12; e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 837 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol, 15-uy.Tel.: (+365) 221-29-14; faks:(365) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 6-mart kuni tarqatildi.

(2026-yil “6”mart dagi 6 - raqamli reestr bayonnomasi).



B.E.Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G‘.Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.Q.Amonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida “olam manzarasi”, xususan uning mifologik, lisoniy, frazeologik, falsafiy, ilmiy va badiiy ko‘rinishlari keng tadqiq etilib, lirika, proza va dramaturgiyada ifodalanish mexanizmlari alohida ilmiy yo‘nalishga aylangan. Tabiat – floristik va faunistik obrazlarning semantik qirrasini ochish, ularning qadimiy arxetiplarga borib taqalishi, badiiy tafakkur rivojiga ta’siri va milliy hamda umuminsoniy mazmun kasb etishi ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Ayniqsa, “olaning badiiy manzarasi” she’riyatda hissiy-estetik qatlamni yorituvchi poetik tizim sifatida o‘rganilmoqda. Mazkur holat fanda floristik va faunistik timsollar asosida yaxlit tarzda tadqiq etish, milliy hayot, olam manzarasining tabiat obrazlari orqali aks etishini aniqlash va janrlar bo‘yicha qiyosiy tahlil olib borishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, lisoniy, mifologik va estetik yondashuvlar bilan uyg‘un holda nazariy asoslash, tabiiy obrazlarning milliy identitet ifodasidagi o‘rnini belgilash tadqiqot dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Dunyo falsafa, tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmida “olam manzarasi”ni turli nazariy rakurslarda o‘rganish, uning falsafiy, lingvistik va poetik mohiyatini aniqlash bo‘yicha izlanishlar faollashgan. Xususan, adabiyotning uch turida – lirika, proza va dramaturgiyada olamning badiiy manzarasini aks ettirish mexanizmlari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Lirik asarlarda floristik va faunistik obrazlar vositasida olamni tasvirlashning qadimiy ildizlari, timsollarning tadrijiy rivoji va ularning estetik-falsafiy vazifalarini tahlil qilish ustuvor hisoblanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda tabiat timsollarining milliy hayot lavhalari, axloqiy-ma’naviy g‘oyalar hamda tasavvufiy mazmunni ifodalashdagi funksional imkoniyatlari keng yoritilmoqda. Shu bois global ilmiy yo‘nalishlarda badiiy olam manzarasining semiotik talqini, poetik timsollar evolyutsiyasi va madaniy-arxetipik qatlamlarni tadqiq etish eng dolzarb yo‘nalishlar qatoriga kiradi.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida olamning badiiy manzarasi, uning lirik, epik, dramatik ijod namunalarida ifodalanishi, yangi o‘zbek she’riyatida olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar orqali tasvirlash poetikasi, ularning ramziy-timsoliy mohiyati, badiiy san’atlar uchun asos bo‘lishi, ijtimoiy-intellektual, ramziy mazmunni kuchaytirishga xizmat qilganligi bilan bog‘liq tadqiqotlarga katta e’tibor berilmoqda. “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”¹. Bu borada yangi o‘zbek she’riyatida olamning badiiy manzarasini aks ettirish yo‘llari, bunda floristik va faunistik obrazlardan foydalanish, ularning ramziy ma’nolarini ochib berish, axloqiy, ma’rifiy, irfoniy mazmunini yoritish, badiiy san’atlarni hosil qilishda asos bo‘lib xizmat qilishini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga

¹Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi, 2017. – 4-avgust.

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2010-yil 26-fevraldagi PQ-1292-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va yangi adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida" Farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². "Olam manzarasi", "olamning mifologik manzarasi" "olamning lisoniy manzarasi", "olamning frazeologik manzarasi", "olamning falsafiy manzarasi", "olamning ilmiy manzarasi" va "olamning badiiy manzarasi"ni o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Pamukkale universiteti (Turkiya), Wikato universiteti (New Zealand), Moskva gumanitar universiteti, Volgograd davlat universitetining rus adabiyoti instituti, Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Voronej Davlat universiteti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi G.Ibragimova nomidagi Til, adabiyot va san'at instituti, Kranosnodar davlat universiteti, Saratov milliy tadqiqot davlat universiteti, Boshqirdiston davlat universiteti, Omsk davlat pedagogika universiteti, Dog'iston davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Moldova davlat universiteti (Moldova), Belorussiya davlat universiteti (Belorussiya), Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), Abu Abdulloh Rudakiy nomidagi Ko'lob davlat universiteti (Tojikiston), shuningdek, O'zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.pau.edu.tr/>, <https://www.waikato.ac.nz/>, <https://mosgu.ru/>, <https://pushkinskiydom.ru/ob-institute/>, <https://volsu.ru/>, <https://www.vsu.ru/>, <https://kgik1966.ru/>, <https://www.antat.ru/ru/yli/obinstitute/structure/tekstologiya.php>., <https://www.sgu.ru/>, <https://www.edu.ru/vuz/card/bashkirkij-gosudarstvennyj-universitet/fgos>, <https://omgpu.ru/>, <https://dstu.ru/>, <https://mrsu.ru/ru/university/>, <https://bsu.by/>, <https://www.kaznu.kz/>, <https://new.kgu.tj/tj>, <https://tsuull.uz/>, <https://www.academy.uz/page/institut-uzbekskogo-azyka-literatury-i-folklor-akademii-nauk-respubliki-uzbekistan>, <https://buxdu.uz/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

Yangi o‘zbek she‘riyatida olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar vositasida aks ettirish yuzasidan jahon adabiyotshunosligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: “badiiy dunyo manzarasi” tushunchasi falsafiy aspektida ishlab chiqilgan (Moskva gumanitar universiteti, Saratov milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi); badiiy dunyo manzarasiga qadimgi yunon, Yevropa va slavyan folklor-mifologik tizimlarining elementlari qanday tarzda ramziy ma’no kasb etishi ijodkorlar asarlari misolida tizimlashtirilgan (Orenburg davlat pedagogika universiteti, Belgorod davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi); olamning badiiy manzarasida yolg‘izlik tasviri ochib berilgan (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi); prozada olamning badiiy manzarasi ochib berilgan (Volgograd davlat universiteti, Rus adabiyoti instituti, Voronej davlat universiteti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi G.Ibragimova nomidagi Til, adabiyot va san’at instituti, Rossiya Federatsiyasi); dramaturgiyada badiiy dunyo manzarasining asosiy tarkibiy qismlari, xususiyatlari, sifatlari va qadriyatlar iyerarxiyasi aniqlab berilgan (Boshqirdiston davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), lirikada olamning badiiy manzarasi ochib berilgan (Moldova davlat universiteti, Moldova; Omsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi; Belorussiya davlat universiteti, Belorussiya); badiiy dunyo manzarasida yorug‘lik va rang obrazlari muallif dunyoqarashini hamda uning nasriy uslubining o‘ziga xosligini anglashga qanday yordam berishi tadqiq etilgan (Dog‘iston davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi), olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar vositasida aks ettirish ochib berilgan (Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti, Qozog‘iston); badiiy tarjimada olam milliy manzarasini adekvat qayta yaratish muammolari konseptual tahlil qilingan (O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston); olam lisoniy manzarasining turfa ranglar vositasida mujassamlanishi dalillangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston).

Jahon adabiyotshunosligida lirikada olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar vositasida aks ettirish bo‘yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: nasrda olamning badiiy manzarasini aks ettirish, yangi she‘riyatda olamning badiiy manzarasini metaforalar vositasida ifodalash, lirikada olamning badiiy manzarasini tasvir vositalari orqali berish, she‘riyatda olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar yordamida yoritish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzu bo‘yicha ikki yo‘nalishda tadqiqotlar olib borilgan:

1. Adabiyotshunoslik, falsafa va tilshunoslik ilmida olam va uning ifodaviy manzaralariga doir masalalar keng o‘rganilmoqda. Jumladan, “olam manzarasi” A.Ivanov³; “olamning mifologik manzarasi” R.S.Xalimulina, J.V.Novoxatskaya⁴;

³Иванов А. Картина мира как феномен отражения действительности. –М., 1962. – 168 с.

⁴Халимулина Р.С. Мифологическая картина мира (гносеологический аспект). Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филос. наук. – Москва, 20008. – 18 с.; Новохацкая Ж. В. Фольклорно-мифологические истоки художественных концептов в индивидуально-авторской картине мира В.Высоцкого. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Белгород, 2011. – 24 с.

“olamning fizikaviy manzarasi” M.Plank⁵, olam milliy manzarasi Y.V.Prikazchikova, Y.P.Savchenko va X.N.Nguyen⁶; olamning umumiy manzarasi A.Spirkin⁷ tadqiqotlarida o‘rganilgan. “Olamning badiiy manzarasi” nazariyasi G.R.Sagitova, K.A.Ojerelyev, L.Busigina, G.M.Guseynova, V.Rudnev, G.F.Tuxvatova, K.Klaxson, N.F.Brikina, A.B.Tarasov, T.M.Vaxitova, A.B.Bobrova⁸ kabi olimlarning ishlarida nasriy va she’riy asarlar, muayyan shoir-yozuvchilar ijodi misolida o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida olamning milliy manzarasi Gulandom Bakiyeva, Rahima Shirinova, Dilrabo Baxronova⁹lar tomonidan tadqiq qilingan. Biroq adabiyotshunoslik aspektida “olamning badiiy manzarasi” masalasi termin sifatida yaxlit tartibda o‘rganilmagan.

2. Floristik va faunistik obrazlardan foydalanish. Tilshunoslik yo‘nalishida floristik va faunistik leksika bo‘yicha A.K.Safuan, Y.P.Akulina, O.I.Musayeva¹⁰ kabi rus olimlarining izlanishlari e‘tiborli. Adabiyotshunoslik yo‘nalishida L.A.Borzix, Shi Xan¹¹ tadqiqotlarida she’riyatda floristik obrazlar poetikasi

⁵Планк М. Единство физической картины мира. – М.: Наука, 1996. – 288 с.

⁶Приказчикова Е.В., Савченко Е.П. Особенности воссоздания национальной картины мира при переводе современной российской прозы на английский язык (лингвокогнитивный аспект) // Филологические науки. – Тамбов: Издательство Грамота, 2002. – С. 145-148.; Нгуен Х.Н. Отражение национальной картины мира в русской паремииологии (в контрастивных данных паремииологии вьетнамского языка). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – 23 с.

⁷Спиркин, А. Фалсафа асослари. – М., 1973. – 508 с.

⁸Сагитова Г.Р. Художественная картина мира в драматургии Аяза Гилязова. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Уфа, 2007. – 28 с.; Ожерельев К.А. Художественная картина мира в лирике К.С.Аксакова и И.С.Аксакова. Специальность 10.01.01 – русская литература. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Омск, 2014. – 28 с.; Бусыгина Л. В. Поэтическая картина мира в лирике Кузубая Герда: Дис. канд. филол. наук. – Ижевск, 2003. – 24 с.; Гусейнова Г.М. Концепты “Свет” и “цвет” в художественной картине мира Ю.П. Казакова. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Махачкала, 2009. – 25 с.; Руднев В. Энциклопедический словарь культуры XX в. – М., 2001. – 608 с.; Тухватова Г.Ф. Художественная картина мира в творчестве Габдулгазиза Мунасыпова. Специальность: 10.01.02 – литература народов Российской Федерации (татарская литература). Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Казань, 2011. – 23 с.; Kluckhohn F.I. and Strodtbeck F.L. Variation in Value Orientations. Evenston, Ill, Elrasford, New York: Row Peterson, and сотр., 1961. – 31 p. Брыкина Н.Ф. Художественная картина мира в прозе Венедикта Ерофеева. Специальность 10.01.01. – русская литература. – 22 окт., 2009. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Волгоград, 2009. – 22 с.; Тарасов А.Б. Феномен праведничества в художественной картине мира Л. Н. Толстого. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Москва, 2006. – 22 с.; Вахитова Т.М. Художественная картина мира в прозе Леонида Леонова (структура, поэтика, эволюция). Автореф. дисс. на соискание ученой степени докт. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 46 с.; Боброва А.В. Концепты одиночество и уединение в художественной картине мира А.Битова. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Новосибирск, 2017. – 24 с.

⁹Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста. Дисс. докт. филол. наук. –Т., 1993. – 46 с.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Фил. фан. бўйича докт. дисс. автореф. – Т., 2017. – 58 б.; Бахронова Д.К. Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категориялиши. Фил. фан. бўйича докт. дисс. автореф. – Т., 2017. – 73 б.

¹⁰Сафуан К.А. Флористическая лексика в лирике С.Есенина. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – 24 с.; Акулина Е.П. система флористических текстовых единиц в творческой картине мира Б.Л. Пастернака. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. – 24 с.; Мусаева О.И. Флористическая метафора как фрагмент национальной картины мира (на материале русского и испанского языков). Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Воронеж, 2005. – 24 с.

¹¹Борзых Л.А. Флористическая поэтика С.А.Есенина: классификация, функция, эволюция. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Тамбов, 2012. – 26 с.; Ши Хан. Флористические образы в русской и китайской поэзии первой трети XX века. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Волгоград, 2012. – 22 с.

tekshirilgan. Adabiyotshunoslikda faunistik obrazlardan foydalanish va ularning mazmuni haqida A.A.Artemeva, A.A.Mostepanov, Y.S.Orexova, Y.M.Nikitina¹² kabi olimlarning nomzodlik dissertasiyalarida o'rganilgan.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon adabiyotshunoslarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, yangi o'zbek she'riyatida olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar vositasida ifodalash poetikasi yaxlit tarzda tekshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" (2020-2025-yy.)" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yangi o'zbek she'riyatida olam badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar orqali aks ettirishning an'anaviy va novatorona xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"olamning badiiy manzarasi" atamasi, adabiyotshunoslikdagi talqinlari hamda uni floristik va faunistik obrazlar orqali ifodalashning qadimiyligini ochib berish;

o'zbek mumtoz she'riyatida floristik va faunistik obrazlarning badiiy-estetik vazifalari va an'anaviylik xususiyatlarini yoritish;

yangi o'zbek she'riyatida olam badiiy manzarasining floristik obrazlar orqali aks ettirilishiga xos jihatlarni ochib berish;

yangi o'zbek she'riyatida daraxt, o'simlik, gul obrazlarining ramziy-timsoliy ma'nolarini yoritish;

yangi o'zbek she'riyatida olamning badiiy manzarasini faunistik obrazlar vositasida aks ettirishga xos xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida yangi o'zbek she'riyati vakillarining she'rlari tanlangan (Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Zulfiya, Mirtemir, Asqad Muxtor, Saida Zunnunova, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Jamol Kamol, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Ikrom Otamurod, Sirojiddin Sayyid, Halima Axmedova, Shodmon Sulaymon), zarur o'rinlarda xalq lirikasi hamda o'zbek mumtoz she'riyati namunalariga murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini yangi o'zbek she'riyatida olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar orqali ifodalash poetikasi tashkil etadi.

¹²Артемьева Н.А. Анималистические образы в баснях И.А.Крылова. Автореферат дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Смоленск, 2012. – 24 с.; Мостепанов А.А. Анималистический жанр в английской литературной сказке XX века. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – 24 с.; Орехова Ю.С. Анималистическая литература Франции: традиции и их трансформация в творчестве С.Г.Колетт. Автореф. дисс. на соиск. ученой степени канд. филол. наук. – Калининград, 2008. – 22 с.; Никитина Е.М. Анималистическая образность в прозе М.А. Шолохова 1920-1930-х годов (от "Донских рассказов" – к "Тихому Дону"). Автореф. дисс. на соискание ученой степени. – Воронеж, 2015. – 18 с.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, germenevtik, psixologik, biografik, analitik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xalq lirikasida floristik va faunistik obrazlarning arxetipik tabiati, mifopoetik ildizlari, mumtoz adabiyotdagi olam va odam yaxlitligi – yagona universum haqidagi qarashlar olamning badiiy manzarasini aks ettirishi, uning lirikada psixomental holatlarni ifodalovchi estetik kategoriya ekanligi, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy jihatlarini namoyon etishi aniqlangan;

o‘zbek mumtoz she‘riyatida olam badiiy manzarasini yaxlitlashtirish, detallashtirishda lola, sarv, shamshod, rayhon, suman, it, ot, tulki, arslon, qarg‘a, hudhud kabi floristik va faunistik obrazlardan foydalanilganligi, ularning islomiy madaniyat va tasavvuf falsafasi bilan bog‘liq an‘anaviy mazmun ifodalaganligi, ramziy-timsoliy jihatdan badiiy tadrijiylikni yuzaga keltirganligi ochib berilgan;

yangi o‘zbek she‘riyatida olam badiiy manzarasini floristik obrazlar vositasida tasvir etishning spetsifik belgilari, bunda lola, na‘matak, g‘o‘za, bug‘doy, maysa, o‘sma, yalpiz, ismaloq, yantoq kabilarning insoniy fazilatlarni ifodalashi, antropomorfizmni yuzaga keltirganligi, milliy kolorit va milliy hayot manzaralarini aks ettirishga asos bo‘lganligi, ijtimoiy-falsafiy mazmuni kuchaytirishga xizmat qilganligi asoslangan;

davr she‘riyatida daraxt obrazlarining timsoliy-falsafiy, ijtimoiy ma‘nolarni bildirganligi, terak, sarv, chinor, majnuntol, olma, arg‘uvon, o‘rik, shaftoli, tut obrazlari orqali millat dunyoqarashi, unga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, saxovat va rizq-ro‘z konseptlarining badiiy tilga ko‘chirilganligi, andisha, mehr va bag‘rikenglik kabi fazilatlarga ishora qilganligi ilmiy dalillangan;

zamonaviy she‘riyat kontekstida ot, it, ho‘kiz, ohu, arslon, burgut, bulbul singari faunistik obrazlar xarakter-xususiyati, ko‘rinishidan kelib chiqib, ijobiy, salbiy ma‘nolarni bildirib kelganligi, ramziylikni ifoda etganligi, olamning milliy manzarasini yaratishga asos bo‘lganligi, lirik qahramonning ruhiy-psixologik olamini ochib berishga xizmat qilganligi yoritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalar o‘zbek va jahon adabiyotshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy bilimlar bilan boyitishdan tashqari “O‘zbek folklori”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Navoiyshunoslik”, “Milliy uyg‘onish davri va o‘zbek adabiyoti”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” hamda “Adabiyot nazariyasi” kabi fanlardan darslik va qo‘llanmalarining mukammal avlodini yaratishga xizmat qilishi asoslangan;

xalq lirikasida olamning badiiy manzarasi gulsafsar, tikan, qizg‘aldoq, o‘sma, qizil gul, arg‘uvon, boychechak, tut, tol, archa, qayrag‘och, terak, chinor, olma, anjir, anor, bodom singari floristik; kaptar (kabutar), qaldirg‘och, to‘tiqush, bulbul, qarg‘a, xo‘roz, ot, oq ot, kiyik, bo‘ri, arslon, yo‘lbars, qoplon, ilon, baliq kabi faunistik obrazlar orqali ifoda etilganligi asoslangan;

xalq qo‘shiqlari, mumtoz lirika namunalari hamda yangi o‘zbek she‘riyatida qo‘llangan floristik olamga aloqador, tabobatda keng qo‘llaniluvchi zubtutum, ismaloq, rayhon, yalpiz, na‘matak, yantoq singari o‘simliklarning dorivor giyoh; yong‘oq, jiyda, bodom kabi quruq mevalarning shifobaxsh vosita ma‘nosini

bildirganligi; ularning shu jihatdan ko‘proq o‘z ma‘nosida ifodalanganligi lingvistik jihatdan aniqlangan;

yangi o‘zbek she‘riyatida olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar vositasida ifodalash orqali ramziylikni, hayotiy-falsafiy, ma‘rifiy-axloqiy mazmuni kuchaytirishga, lirik timsollar olamini boyitishga xizmat qilganligi, badiiy san‘atlarni yaratishga asos bo‘lganligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma‘lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, lingvistik, germevtik, psixologik, biografik va analitik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar vositasida ifodalash poetikasi yoritilgan nazariy xulosalardan va “olamning badiiy manzarasi” nazariyasi, yangi o‘zbek she‘riyati yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma, majmualar yaratishda; adabiyotshunoslik lug‘atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Olam badiiy manzarasining floristik va faunistik obrazlarda ifodalanishi (yangi o‘zbek she‘riyati misolida)” mavzusida erishilgan ilmiy natijalardan:

xalq lirikasida floristik va faunistik obrazlarning qadimiyligi, mumtoz adabiyotdagi vahdat ul-vujud, tajalliy, olam va odam yaxlitligi – yagona universum haqidagi qarashlar olamning badiiy manzarasini aks ettirishi, lirikada madaniy-tarixiy, ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, psixomental jihatlarini namoyon etishi, tasviriylik va ekspressivlikka xizmat qilishi aniqlangan xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan IZ-2021020813 raqamli “Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimedia to‘plamini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2021-2023.yy) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 2-noyabrdagi 04/1-3118-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek mumtoz she‘riyatida olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar orqali aks ettirish bo‘yicha ma‘lumotlarni boyitish va aniqlashtirishga xizmat qilgan;

o‘zbek mumtoz she‘riyatida olam badiiy manzarasining yaxlit va bo‘lak holda berishda lola, sarv, shamshod, rayhon, suman, it, tulki, arslon, qarg‘a, hudhud kabi floristik va faunistik obrazlardan foydalanilganligi, ularning an‘anaviylik xususiyati, ramziy-timsoliy ma‘nolari, tadrijiy belgilari ochib berilgan ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida (2021-

2023.yy)foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 3-dekabrda 04/1-3989-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada she’riyatda floristik obrazlar orqali ifodalashda ramziy-falsafiy mazmuni kuchaytirishga erishilganligini asoslash imkonini bergan;

yangi o‘zbek she’riyatida olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar vositasida tasvir etishning spetsifik belgilari, bunda na’matak, g‘o‘za, bug‘doy, maysa, o‘sma, yalpiz, ismaloq, yantoq kabilarning insoniy fazilatlarni ifodalashi, milliy kolorit va milliy hayot manzaralarini aks ettirishi, ijtimoiy mazmun kasb etganligi lingvistik jihatdan aniqlangan xulosalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan A-OT-2021-2-raqamli “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada (2020-2021.yy) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 28-noyabrda 01-04/7500-son ma’lumotnomasi). Natijada she’riy matn tarkibida qo‘llangan nabotot nomlarining turli tibbiy ma’nolarni bildirganligi va soha lingvistikasi terminlarini boyitishga xizmat qilgan;

yangi o‘zbek she’riyatida daraxt obrazlarining timsoliy-falsafiy, ijtimoiy ma’nolarni bildirganligi, terak, sarv, chinor, majnuntol, olma, arg‘uvon, o‘rik, shaftoli, tut obrazlari orqali o‘zbek milliy mentalitetiga xos xususiyatlar in’ikos topganligi dalillangan qarashlardan Oliy ta’limning 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’limi yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “Yangi o‘zbek adabiyoti” nomli darsligida foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi Buxoro davlat universitetining 2024-yil 02-iyulda 452-sonli 452-12-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada darslik yangi o‘zbek she’riyatida floristik va faunistik obrazlar tahlili bilan boyitilgan;

yangi o‘zbek she’riyatida ot, it, ho‘kiz, ohu, arslon, burgut, bulbul singari faunistik obrazlar orqali olamning milliy manzarasi namoyon bo‘lganligi, lirik qahramonning ichki olami, ruhiy dunyosi aks ettirganligi, novatorona mazmun kasb etganligi ochib berilgan fikr-qarashlardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, O‘zbekiston”, “Milliy o‘zlikni anglab” ko‘rsatuvlarida foydalanilgan va tadqiqotchi bilan bevosita suhbat olib borilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 2-dekabrda 01-09/172-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada adabiy ko‘rsatuvlar zahirasini ilmiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 1 ta Scopus, 9 ta xalqaro konferensiyada aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 1 ta darslik, 1 ta monografiya, 36 ta ilmiy ish nashr etilgan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 23 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika hamda 11 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 265 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, xorijiy adabiyotlar sharhi berilgan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi, nazariy va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Badiiy ijodda olamning badiiy manzarasi talqini masalasi: ilmiy-nazariy asoslar**" tarzida sarlavhalangan va ikki paragrafdan tarkib topgan. "*Olamning badiiy manzarasi*" tushunchasi va uning adabiyotshunoslikdagi talqinlari" deb nomlangan dastlabki paragrafda OBM hamda uni floristik va faunistik obrazlar orqali ifodalash poetikasi nazariyasiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlardagi qarashlar yoritilgan. Jumladan, ilm-fanda "olam manzarasi" tushunchasi: "olamning mifologik manzarasi", "olamning ilmiy manzarasi", "olamning lisoniy manzarasi", "olamning falsafiy manzarasi", "olamning badiiy manzarasi" kabi turli ko'rinishlarda qo'llanilmoqda. Bu terminlarning har biri muayyan fan sohaları: falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslikda, ayniqsa, faol ishlatilmoqda. A.Ivanov "insonni o'rab turgan muhitda sodir bo'layotgan narsa va voqea-hodisalarni, inson ongida in'ikos etilishi"¹³ga olam manzarasi deb ta'rif beradi. Bunda "olam manzarasi" tushunchasini insonni o'rab turgan borliqning uning ongida aks etishi tarzida tushunish mumkin. R.Xalimulina olamning mifologik manzarasini gnoseologik aspektida tahlil qilarkan, "mifologik g'oya va tizimlarning universal xususiyatga egaligi, dunyoni idrok etish va olamga bo'lgan munosabatni belgilashda ularning o'rni yuqori"¹⁴ligini ta'kidlaydi. Y.V.Prikazchikova va Y.P.Savchenkolar metafora, realiya, frazeologizmlarni olam milliy manzarasining asosiy elementlari tarkibiga kiritadi¹⁵. X.N.Nguyen paremiologiyalarga olam milliy manzarasining elementi sifatida yondashgan¹⁶. Mazkur birliklar vositasida milliy hayot manzaralari yaratiladi. Shunga ko'ra, olamning badiiy manzarasi deyilganda, ijodkorning voqelikni badiiy idrok etishi tushuniladi. Ya'ni ijodkor voqelikni qay usulda, qaysi vositalar va qaysi obrazlar orqali badiiy gavdalantirishi bu tushuncha mohiyatini qamrab oladi.

O'zbek tilshunosligida "olamning lisoniy manzarasi", "olamning milliy manzarasi" yuzasidan Gulandom Bakiyeva, Rahima Shirinova, Dilrabo Keldiyorovalarning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Jumladan, R.Shirinova U.X.Duran, N.Vasileva, I.Sternin kabi xorij olimlari fikrlariga asoslanib, "olam

¹³Иванов А. Картина мира как феномен отражения действительности. – М., 1962. – С.108.

¹⁴Халимулина Р.С. Мифологическая картина мира (гносеологический аспект). Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филос. наук. – Москва, 2008. – 18 с. – С. 1.

¹⁵Приказчикова Е.В., Савченко Е.П. Особенности воссоздания национальной картины мира при переводе современной российской прозы на английский язык (лингвокогнитивный аспект) // Филологические науки. – Тамбов: Издательство Грамота, 2002. – С.145-148.

¹⁶Нгуен Х.Н. Отражение национальной картины мира в русской паремииологии (в контрастивных данных паремииологии вьетнамского языка). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – С.11.

manzarasi”ni quyidagicha ta’riflaydi: “Demak, olam manzarasi – inson dunyoqarashining asosi bo’lgan borliqning global qiyofasi, ya’ni insonning kognitiv va ma’naviy faoliyati natijasida olamni idrok etish, anglash yo’lidagi muhim xususiyatlarni ifodalaydi”¹⁷. Shu ta’rifdan kelib chiqib, yuqoridagi terminlar mohiyati anglashiladi. Biroq mazkur atamalar qatorida “olaning badiiy manzarasi” termini qo’llanmagan. Rus adabiyotshunosligi va tilshunosligida esa “xudojestvennaya kartina mira” termini faol qo’llanilganligi kuzatiladi. Olaning badiiy manzarasi yo’nalishida rus, tatar adabiyotshunosligi hamda madaniyatshunosligida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan¹⁸.

Adabiyotshunoslikda ham bu masalaga yetarlicha e’tibor qaratilgan. Jumladan, bu masalaga she’riyat nuqtayi nazaridan yondashgan K.A.Ojereyev yozadi: “K.S.Aksakovning dastlabki falsafiy she’riyatining motivli-obrazli dunyosi yer va osmon, individuallik va samoviylik birligi bilan ajralib turadi. She’riyatda “sintez”dan foydalanish slavyanofilga turli she’riy va madaniy an’analarni (slavyan, pravoslav, G’arbiy Yevropa, Sharq va boshqalar), falsafiy toifalarni organik ravishda birlashtirishga imkon beradi. K.S.Aksakov she’riy dunyoqarashining o’ziga xos xususiyatlari universallik, dialektiklik, proteizm va kosmizmga intilishda namoyon bo’ladi”¹⁹. Demak, K.S.Aksakov she’riyatining uslubiy o’ziga xosligi unda zamin va zamon muammolarining falsafiy idrok etilishi, universallik, dialektizm, proteizm, kosmizmga intilishida yuzaga kelganligi “olaning badiiy manzarasi” tushunchasida mujassam topgan.

G.M.Guseynova olaning badiiy manzarasini yaratuvchi vosita sifatida metaforani ko’rsatadi²⁰. L.V.Millerning “Olaning badiiy manzarasi va badiiy matnlar dunyosi” nomli kitobida “olaning badiiy manzarasi” fenomenini tasvirlashga bag’ishlangan nazariy adabiyotlarning aksariyati tahlil qilingan²¹. Tadqiqotchining fikricha, ushbu ta’rifning definitsiyasi V.Toporovning formulasi bilan bog’liq, ya’ni V.Toporov “olaning badiiy manzarasi” atamasidan foydalanmaydi. Shunga qaramay, V.Toporov²² manzarani “yaxlit-yagona madaniy-tarixiy, diniy-axloqiy va psixomental majmuaning aksi” deb ta’kidlaydi. Aslida ham shunday. Olaning badiiy manzarasida madaniy-tarixiy, diniy-axloqiy, psixomental jihatlar mujassamlashadi. Shu jihatdan, olim fikrlariga qo’shilish mumkin.

“Olaning badiiy manzarasi” termini, eng avvalo, olam, borliq, dunyo tushunchalarining o’zini ular ifodalagan asl mazmun-mohiyat nuqtayi nazaridan anglashni taqozo etadi. Shu o’rinda aytish kerakki, olam va borliq falsafiy terminlarining ifoda doirasi keng: unda ruhiy-ma’naviy, fazoviy tushunchalar ham aks etadi. Dunyo esa olam va borliqqa qaraganda moddiylik kasb etadi. Ifoda

¹⁷Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Фил. фан. докт. дисс. автореф. – Т., 2017. – Б.14.

¹⁸Полторацкая Л.А. Искусство в пространстве художественной картины мира: дисс. канд. культурологии: 24.00.01 / Полторацкая Людмила Алексеевна. – Краснодар, 2009. – 181 с.

¹⁹Ожерельев К.А. Художественная картина мира в лирике К.С.Аксакова и И.С.Аксакова. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Омск, 2014.

²⁰Гусейнова Г.М. Концепты “свет” и “цвет” в художественной картине мира Ю.П. Казакова. Автореф. дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. – Махачкала, 2009.

²¹Лихачев Д. Внутренний мир художественного произведения//Вопросы литературы, 1968. – № 8. – С. 74.

²²Миллер Л. В. Указ. Соч. – С. 33.

maydoni tor. O‘zida Yer kurrasi va moddiyatni namoyon etadi. Olam butun (makro) va qism (mikro) holatida namoyon bo‘ladi. Masalan, hazrat Alisher Navoiyning: *Gar sanga ham yetsa guldun bir tikan, // Gulxan o‘lg‘ay maskaning, yo‘qkim chaman*²³, – baytida gul – olamning butun holatini, tikan esa uning bir bo‘lagi – g‘avg‘olari, turli mashaqqatlari timsolini badiiy ifoda etadi. Bundan tashqari, zohiriy va botiniy olam tushunchalari ham mavjud. Ma‘lumki, Olam va Odam yaxlitligi – Yagona universum muammosi insoniyat paydo bo‘lgandan buyon ahli ilmning diqqat markazida. Odamni olamdan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ularning bir-birini taqozo etishi mavjudlikni belgilaydi. Bir butunlikni hosil qiladi. Olam, tabiat va odam kategoriyalari bir-birini to‘ldirib mushtaraklik hosil qiladi.

Ta‘kidlash joizki, *san‘atkorning dunyoni hissiy idrok etib, uni poetik ifodalashi natijasida olamning badiiy manzarasi yaratiladi*. Qolaversa, olamning badiiy manzarasi – bu insonning tabiatni faqat anglash darajasi emas, balki u bilan qanday **ruhiy aloqada** ekanini ko‘rsatadigan estetik hodisa hisoblanadi.

Bobning ikkinchi paragrafida “*Olam badiiy manzarasini ifodalashning lingvopoetik vositalari*” tadqiq etilgan. Olam badiiy manzarasi obrazlar, poetik ko‘chimlar va turli badiiy san‘atlar orqali ham aks etadi. Adabiyotshunoslikda “obraz”, “timsol”, “detal” kabi terminlar qo‘llaniladi. Bular muayyan o‘rinlarda sinonim, muayyan o‘rinlarda alohida hodisa sifatida keladi. Binobarin, hozirgi paytda “timsol” so‘zi “obraz” atamasiga muqobil tarzda ilmiy muomalada ishlatilmoqda. Adabiyotshunos olim D.Rajabovning fikricha, timsol hamisha ham obrazga sinonim bo‘lavermaydi, uning uchun zamin vazifasini o‘taydi²⁴. Badiiy detal va timsol ham tadrijiylik xususiyatiga ega. Ularning badiiy obraz darajasiga ko‘tarilishi yoki ko‘tarilmasligi ijodkorning dunyoqarashi yoki asardan ko‘zlangan g‘oyaviy maqsad bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi Boburning mashhur bir ruboiysida faunistik obrazlardan biri **qo‘y** tilga olingan: *Kechrak kelasen, bu xastadin to‘ydungmu? // Dil safhasidin harfi vafo yo‘ydungmu? // Nomus-u uyot kerak, uy, ot sahl durur, // Yuz qo‘y uchun ul eshikka yuz qo‘ydungmu?*²⁵ Ko‘rinadiki, u badiiy detal holida qolgan. Quyidagi xalq qo‘shig‘ida badiiy timsol ko‘zga tashlanadi ...*Uyim oldi katta bog‘, // Rayhon ekoman, deyman. // Yorimga sovg‘a qilib, // Do‘ppi tikoman, deyman*²⁶. Ya‘ni bunda rayhon faqat gul nominigina emas, o‘zbek oilasining birdamlik, mehr-oqibat, xotirjamlik tuyg‘ulari mehvarida bunyod bo‘lganligini urg‘ulaydi. A.Oripov “Binafsha” nomli she‘rida binafshani nozik, ma‘suma, diltortarlighi bois **qizga** mengzaydi: *Hayot qonunlari buzilmas hargiz, // U aslo rejasin o‘zgartirmagay. // Shu nozik binafsha, shu ma‘suma qiz // Qish bilan, qor bilan kurashmoqqa shay*²⁷. Misralarda qishning qirovli qorlarini yengib, shamol-u bo‘ronlarni pisand qilmasdan bahorning ilk qadamlarini olqishlash uchun jasorat ko‘rsatuvchi

²³Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. Лисонут-тайр. – Т.: Фан, 1996. – Б. 66.

²⁴Ражабов Д. Бадий образ ва ритм табиати. – Бухоро, 2002. – Б. 38.

²⁵Бобур. Девон. –Т.: Фан, 1994. – Б. 130.

²⁶Шода-шода марварид: Ўзбек халқ кўшиқлари. – Т.: Шарқ, 2006. – Б. 24.

²⁷Орипов А. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Шеърлар, дoston, мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – Б. 60.

binafsha mard qizga tenglashtiriladi. Bunda binafshaning poetik obraz darajasiga ko'tarilganini kuzatamiz. Bundan tashqari, mazkur paragrafda OBMni aks ettirishda eng faol qo'llaniluvchi poetik ko'chimlar (ramz, majoz), badiiy san'atlar (tashbih, tazod, husni ta'lil, istiora, epitet, tashxis, tanosub, irsoli masal, alliteratsiya, tajohuli orif, tanosub) ishtirok etgan she'riyatimizning go'zal namunalaridan parchalar tahlilga tortilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Xalq lirikasi va o'zbek mumtoz she'riyatida olam badiiy manzarasining floristik va faunistik obrazlarda aks etishi**" tarzida sarlavhalangan va uch paragrafdan iborat. Dastlabki paragrafda "*Xalq lirikasida floristik va faunistik obrazlarning shakllanish asoslari*" yoritilgan. Xalq qo'shiqlari millatning uzoq asrlik poetik xotirasini jamlaydi. Olam badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar vositasida aks ettirish orqali xalq ko'nglidagi dardlar, his-kechinmalarning ta'sirchan ifoda etilishiga erishilgan. "**Flora** – (lotincha Flora – Rim mifologiyasida: gullar, bahor va yoshlik ma'budasi; flos, floris – gul) Yer kurrasining biror qismida yoki biror geologik davrda mavjud bo'lgan barcha o'simliklar majmuyi; o'simliklar dunyosi"²⁸. Demak, har bir xalqning tarixiy-geografik joylashuviga ko'ra o'simliklar olami mavjud hamda ular xalq ijtimoiy-madaniy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shunga ko'ra, floristik obrazlarning o'zini ikki guruhga bo'lib tasnif etish mumkin: 1. Madaniylashgan o'simliklar obrazi. 2. Yovvoyi o'simliklar obrazi. "Yo'l bo'lsin" qo'shig'ida gulisafsar obrazi yaratilgan: *Gulisafsarni ko'ring, //Suvga qarab qayriladi. //Bevafo yorni ko'ring, //O'lmay turib ayriladi*²⁹. Gulisafsar suv bo'ylarida o'sadi va bo'yi uzunligi bois suvga egiladi. Yuqoridagi misralarda **gulsafsar bilan bevafo yor** parallel qo'yilgan va bu parallelizmni yuzaga keltirgan. Ya'ni gulsafsar bilan bevafo yorning holati bir-biriga juda yaqindir.

Xalq lirikasida qo'llangan daraxt obrazlarini ikkiga ajratish mumkin: 1. Manzarali daraxt obrazlari. 2. Mevali daraxt obrazlari. Xalq qo'shiqlarida **olma** obrazi mehr-muhabbat, yor, farzand kabi ramziy timsollarni ifodalab kelishi kuzatiladi: *Oq olma, qizil olma pishmaydikan, //Ikki yaxshi bir yerga tushmaydikan. //Ikki yaxshi bir yerga tushib qolsa, //Bu dunyodan o'tganing bilmaydikan*³⁰. Bunda qadimgi xalqlarning ibtidoiy tasavvurlarga tayanib, daraxtlarni jinslarga: erkak va ayolga ajratganliklarini inobatga olsak, oq olma – yigit, qizil olma esa qizni bildiradi.

"**Fauna** – (nem. Fauna – hayvonot dunyosi; Rim mifologiyasida: dala va o'rmonlar ma'budasi) biror hudud, mamlakat yoki geologik davrning hayvonot dunyosi, ularda yashagan yoki yashayotgan hayvonlar majmuyi"³¹. Fauna dunyosi flora olami bilan yonma-yon turuvchi, borliqning ajralmas ikki bo'lagidir. Xalq lirikasida qo'llanilgan **faunistik obrazlar** ham o'ziga xos. Masalan, ularda kabutar – tinchlik-xotirjamlik; bulbul – oshiqlik; qaldirg'och – sadoqat, fidoyilik; lochin –

